



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

TIBBIY YO‘NALISHDAGI OTM LARNING RUSIYZABON GURUHLARIDA “O‘ZBEK TILI” FANINI O‘QITISHDA TARQATMA MATERIAL BILAN ISHLASH SAMARADORLIGI

Turdiyeva Kavsar Sheraliyevna
Toshkent tibbiyot universiteti, professor

Annotatsiya

Mazkur maqolada rus tilida ta’lim oluvchi tibbiyot talabalari uchun o‘zbek tili mashg‘ulotlarida tarqatma materiallar bilan ishlash samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Kommunikativ hamda fanlararo integratsiyani ta’minlovchi tarqatma materiallardan foydalanish har bir talaba uchun fanni o‘zlashtirish jarayonini yengillashtiradi va darslarni yanada qiziqarli qiladi.

Kalit so‘zlar: tarqatma material, kommunikativ yondashuv, integratsiya, sintaktik konstruksiyalar.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАБОТЫ С РАЗДАТОЧНЫМ МАТЕРИАЛОМ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА «УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК» В РУССКОЯЗЫЧНЫХ ГРУППАХ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ

Турдиева Кавсар Шералиевна
Ташкентский медицинский университет, профессор

Аннотация

В данной статье рассматривается эффективность работы с раздаточным материалом на занятиях узбекского языка для русскоязычных студентов-медиков. Использование раздаточных материалов, которые служат как коммуникативной, так междисциплинарной интеграции, облегчает освоение предмета каждым учащимся и делает уроки более интересными.

Ключевые слова: раздаточный материал, коммуникативный, интеграция, синтаксические конструкции.

THE EFFECTIVENESS OF USING HANDOUT MATERIALS IN TEACHING THE “UZBEK LANGUAGE” COURSE IN RUSSIAN-SPEAKING GROUPS OF MEDICAL UNIVERSITIES

Turdiyeva Kavsar Sheraliyevna
Tashkent Medical University, Professor

Abstract

This article examines the effectiveness of using handout materials in Uzbek language classes for Russian-speaking medical students. The use of handouts that support both communicative and interdisciplinary integration facilitates students' understanding of the subject and makes the lessons more engaging.

Keywords: handout materials, communicative approach, integration, syntactic constructions.

Tibbiy yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarining rusiyzabon talabalariga “O‘zbek tili” fani ta’limining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu avvalo, talabalarning tilni egallash darajasi turli ekanligidan kelib chiqadi.

Institutning birinchi bosqich talabalarining ilk darsini tarqatma material, jumladan, quyidagi savollardan iborat tarqatmadan foydalanish o‘rinlidir:

Guruhingizda institutdan eng uzoqda yashaydigan talabani toping.

Guruhingizda institutdan eng yaqin yashaydigan talabani toping.

Guruhingizda musiqa bilan shug'ullanadigan talabani toping.

Guruhingizda she'r, hikoya, maqola yozadigan talabani toping.

Guruhingizda futbolga qiziqadigan talabani toping.

Guruhingizda o'qishga kirishdan avval ishlagan talabani toping.

Guruhingizda eng ko'p ball to'plagan talabani toping.

Guruhingizdagi eng kichik yoshli talabani toping.

Ushbu savollarga javob olganda talabalar muloqot orqali ma'lumotni tezlikda yig'gan va vazifani tez bajargan 3 ta talabaga o'qish uchun beriladi va yuqori baholanadi.

Ma'lumki, bugungi kunda rusiyzabon guruhlarida ko'plab o'zbek millatiga mansub talabalar tahsil olmoqda. Ular bilan auditor mashg'ulotlarni o'tkazishda tarqatma materiallar, kartochka bilan ishlash, turli darajadagi vazifalar berishda qo'l keladi. Jumladan, tilni past darajada biluvchilar uchun vazifalarni konstruksiyalar asosida bajarish qulay. Chunki sintaktik konstruksiyalarning ishlatilishi talabalarda gap qoliplarining esda qolishini ta'minlaydi. Masalan:

“Qayerda nimalar bor?”

Shifoxonaga kiraverishda , bor.

“Nimada nima mavjud?”

Shifoxonada , mavjud.

Kartochkalar va tarqatma materiallarning ixtisoslik fanlari bilan integratsiyalashuvi esa rusiyzabon talabalarining soha tilidagi gap qoliplarini eslab qolishga yordam beradi. Vazifalarni yuqori darajada o'zlashtirgan talabalarga tilning nazariy qoidalar va leksik sohaviy matnlar integratsiyalashgan ijodiy topshiriqlar, vaziyatli masalalar berilishi maqsadga muvofiqdir.

Topishmoq ko'rinishida tuzilgan, ma'lum bir a'zo belgisini o'zida jamlagan she'rlarni guruh bilan ishlashda samarali foydalanish mumkin. Mazkur vazifa talabaga har bir inson a'zosi haqida ancha iborani eslab qolish imkoniyatini beradi. Masalan:

U gohida osmonda,

Goh har yerga suqular,

Undan ipni o'tkazib

Olish ham mumkin bo'lar.

Uni goh-gohida

Hatto tishlab olishar,

Ba'zan yerga ishqalab,

Ba'zan artib olishar.

U goho qonamagan,

Goh undan bo'lar buloq,

Bu qanday so'z ekan-a?

Undan bo'ldingmi ogoh? (burun)

Shuningdek, bu topishmoqlar a'zolar nomining iboradagi ko'chma ma'nosiga talabalarining e'tiborini qaratishga o'rgatadi.

Kartochkadagi “inson a'zosi nomlarida tartib va sanoq sonlar ishtirok etganlarni toping”, degan topshiriq talabalarga “Anatomiya” va “Ona tili” fanlarining integratsiyasini ko'zda tutgan holda vazifani bajarishga imkoniyat yaratadi. Albatta bu topshiriqqa ko'plab misollar keltirish mumkin: 1- va 2- bo'yin umurtqalari, 12 barmoq ichak, 3-qovurg'a, 2–6-barmoqlar distal falangasi va h.k.

“Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe‘llar” mavzusida kartochkalarga, guruhlarga bo‘linib, bo‘lishli fe‘llarda “Jismoniy tarbiya” mashqlarining ketma-ketligini, bo‘lishsiz fe‘llarda esa “Onaning talaba o‘g‘liga nasihati” ketma-ketligini tuzish va dialoglarda ko‘rsatish vazifasini berish mumkin.

Hozirgi zamon fe‘li ko‘rinishlaridan saboq berar ekanmiz “Menda qanday kasal bor?”, “Demak qayerda bo‘lamiz?” kabi she‘riy topishmoqlarni topish orqali aniq hozirgi zamon va hozirgi kelasi zamon fe‘llarini farqlash va kasallik belgilari haqida ma‘lumot olish talabalarga qo‘l keladi.

Men da qanday kasal bor?
Birdan kirdi shifokor
Men da qanday kasal bor?
Quruq iztirobli yo‘tal qiynayapti,
To‘sh suyagim atrofi og‘riyapti,
Nafasim qisayapti,
Beholik va terlash bo‘layapti.
Men da qanday kasal kechyapti? (bronxit)

Och qolsam, ovqatlansam to‘sh soham og‘riyapti,
O‘sha yerim achishib, shish bordek tuyulyapti,
Kekirish, qorin dami bezovta qilyapti.
Men da qanday kasal kechyapti? (gastrit)

Qon bosimim goh chiqyapti, goh tushyapti,
Ko‘z oldimda hattoki chivinlar uchyapti,
Boshim goh og‘riyapti, goh aylanyapti,
Qulog‘imda, do‘xtirjon, shovqin eshitilyapti,
Yuragimni bir ko‘ring, u juda tez uryapti.
Meni qanday kasal qiynayapti? (xafaqon)

Quyidagi she‘rlardagi har bir satrida takrorlanayotgan fe‘llar ketma-ketligi va bronxit, gastrit, xafaqon kasalligining belgilari talabalarga badiiy uslubda taqdim etilar ekan, xuddi shunday “Demak qayerda bo‘lasiz?” ko‘rinishidagi topishmoqlar ham tor mutaxassis xonalarining belgilari va muolaja jarayonlarini tasvirlaydi.

Muolajada yotgancha,
Qiziyiz hozir ancha.
Shabadani sezasiz,
Achishishni sezasiz.
Demak qayerda bo‘lasiz? (fizioterapiya xonasi)
Bog‘lamni yechamiz,
Choklarni so‘kamiz,
Yarani ochamiz,
So‘ng uni yuvamiz,
Va malhamni surtamiz,
Natijani ko‘ramiz.
Demak qayerda bo‘lasiz? (bog‘lov xonasi)

Shuningdek unda ham she‘rning har satrida hozirgi kelasi zamon fe‘llari takrorlanadi.

Ikkinchi darajali bo‘laklar: hol mavzusida kartochkadagi namunaga qarab, guruh talabalariga vazifa beriladi. Jumladan, quyidagi namuna asosida internet ma‘lumotlaridan burun

va quloq uchun gimnastikani toping. Matn tuzing va hollarning turlarini aniqlang, degan vazifa talabalarning oftalmologiya va otorinolaringologiya sohalarga kirib, o'zbek tilining o'zlashtirishdagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Ko'zlar uchun gimnastika:

Ko'zingizni qattiq yuming va ketma-ket 4–6 marta katta oching.

Tepaga, pastga, o'ngga, chapga boshingizni aylantirmay qarang.

Ko'zingizni aylana bo'ylab: pastga, o'ngga, chap va teskari ketma-ketlikda aylantiring.

Ko'zingizni 3–5 sekund qattiq yuming, keyin 3–5 sekund oching, bu harakatni 6–8 marta takrorlang.

Tezda 10 sekund ichida ko'zingizni yumib oching.

Qovog'ingizni yoping.

XULOSA

Ko'rib turganingizdek, tarqatma materiallar bilan ishlash oliy ta'limda ham o'tilgan mavzuni mustahkamlashda, talabalarni rag'batlantirishda, darslarni qiziqarli o'tishda katta ahamiyatga ega. O'qituvchining vazifasi esa mavzular bo'yicha zaruriy talablarni nafaqat mavzuni mustahkamlashga, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishga qaratilgan.

Tarqatma materiallar guruh bilan yoki individual ravishda taqdim etilishi mumkin. Ular til darslarida fanlararo integratsiya vazifasini ham bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. K. Turdiyeva, D. Ahmedova "O'zbek tili" darslik, Toshkent, "Musiq" nashriyoti, 2008 yil;
2. K. Sh. Turdiyeva "O'zbek tili" darslarida fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi, "Pediatriya" jurnali, 2015 yil, № 1–2; 105–107 betlar.
3. "O'zbek tili" darslarida talabalarda ijodkorlikni rivojlantirish, "Pediatriya" jurnali, № 4/2018 yil, 122–124 betlar.